



“Chiroyli raqamlarga chegirma” aksiyasini o‘tkazish va unda ishtirok etish shartlari

1. Ushbu shartlar “Chiroyli raqamlarga chegirma” aksiyasi (keyingi o‘rinlarda - Aksiya)ni o‘tkazish va unda ishtirok etish tartibini belgilaydi.
2. Aksiyaning amal qilishi davri – 2023-yil 1-maydan 2023-yil 31-avgustga qadar.
3. Aksiya doirasida pullik toifadagi raqamlarga ulanish quyidagi jadvalda keltirilgan narxlarga asosan amalga oshiriladi.

Toifalar	Tarmoq standarti	Narxi (so‘m)	95/99 kodli raqamlar uchun Aksiya amal qilishi davrida pullik toifadagi raqamlarning narxi, (so‘m)	
			80 % chegirma	
0	GSM	39 999 999	8 000 000	
1		19 999 999	4 000 000	
2		11 999 999	2 400 000	
3		3 999 999	800 000	
4		1 999 999	400 000	
5		1 199 999	240 000	
6		599 999	120 000	
7		399 999	80 000	
8		199 999	40 000	
9		99 999	20 000	
10		29 999	6 000	
1	CDMA	5 999 999	1 200 000	
2		3 999 999	800 000	
3		1 999 999	400 000	
4		1 199 999	240 000	
5		399 999	80 000	
6		199 999	40 000	
7		99 999	20 000	
8		39 999	8 000	

4. Aksiya bo‘yicha ulanishni UZTELECOM sotuv va xizmat ko‘rsatish ofislarida, shuningdek, dilerlik xizmat ko‘rsatish punktlarida amalga oshirish mumkin.
5. “Qayta rasmiylashtirish” xizmatidan foydalanilgan hollarda abonent pullik raqamning to‘liq narxini (chegirmasiz) to‘laydi.
6. Aksiya bo‘yicha sotib olingan raqamlarga “Raqam ijarasi” xizmatini ulash imkoniyati mavjud emas.
7. “Abonent raqamini ko‘chirish” xizmatidan foydalanilgan hollarda abonent pullik raqamning to‘liq narxini (chegirmasiz) to‘laydi.
8. Quyidagi tarif rejalari (TR)ga ulangan abonentlar uchun Aksiyada ishtirok etish imkoniyati mavjud emas:
Jismoniy shaxslar uchun – “C1/2/3/4”, “M2M basic”, “HUMO GSM”, “UZCARD GSM”, “UZMOBILE M2M”, “Uzmobile M2M yil”, “Aloqachi”, “Units 500/700/1500/5000”, “MILLIY 2/5/10”.

Yuridik shaxslar uchun – “Oddiy 10”, “Ishbilarmon”, “C1/2/3/4”, “UZCARD –Xizmat”, “M2M – Xizmat”, “GPS – Xizmat”, “M2M basic”, “HUMO GSM”, “UZCARD GSM”, “UZMOBILE M2M”, “Связной”, “Biznes Voice”, “Biznes 25/35”, “Milliy Biznes 25/30”.

9. Raqamlar (Aksiya doirasida) TRga ulanganda, to‘langan 12 ta sikl (abonent to‘lovlari) muddati tugaganidan so‘ng TRni o‘zgartirish mumkin bo‘ladi. Aksiya doirasida TRni faqat Aksiyada ishtirok etadigan TRga o‘zgartirish mumkin.

10. Aksiya doirasida chegirmalar faqat amaldagi prefikslarga tatbiq etiladi, Aksiya amal qilishi davrida yangi prefikslar ochilmaydi.

11. Aksiya o‘tkazilishi va unda ishtirok etish shartlari to‘g‘risida tegishli ma’lumotlar Kompaniyaning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali e’lon qilinadi.

12. “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Aksiya shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega va ushbu haqda tegishli ma’lumotlar Kompaniyaning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali ma’lum qilinadi. Ishtirokchilar Aksiya shartlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilganligini Kompaniyaning mazkur rasmiy veb-sayti orqali mustaqil ravishda tekshirib turishlari mumkin.